

## BOLANING KAMOL TOPISHIDA PSIXOLOGIK YONDASHUV

**Raximova Nigora Abduzaxidovna**

Tel: 97 712 78 66

Xalqaro islom akademiyasi qoshida tashkil etilgan " Ziyo- Zukko umumta'lim maktabi" boshlang'ich ta'lif o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Sizga ma'lumki, ko'pgina ota-onalar farzandlarini tarbiyalashda turli xil to'siqlarga uchraydilar.Farzandni dunyoga keltirib, ularni voyaga yetkazib katta qilish va ilm zinapoyalaridan qadamma-qadam yetaklab, dunyoni tanitishda ota-onadan og'ir mehnatni, mashaqqatni talab etadi.

**Kalit so`zlar:** zamonaviy madaniyat, ommaviy axborot tizimlari, Ta'lif tizimida psixologik metodlarning ijobiy natijalari, internet tarmoqlar.

Har bir ota-onan o'z farzandlarini qanchalik yuqori marralarga erishishlarini orzu qiladilar. Ularning bilimi uchun sarmoya sarflab, qo'lidan kelganicha zamonaviy maktab dargohlarida o'qitishga harakat qiladilar. Bola bilimli, ongli, har tamonlama zakiy bo'lishi uchun va kelajakda komil inson bo'lib yetishishida hissa qo'shadilar.

Shubhasiz, zamonaviy madaniyat va ayrim ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlaridan kelayotgan turli tarbiyaga mos kelmaydigan ko'rsatuvalar bola ongiga ta'sir etmoqda. Farzandni tarbiyalashda ya'ni, bir- biriga zid g'oyalar va qadriyatlar bilan teskari qilib tashlanmoqda. Afsuski, ularning ko'pchiligi bolaning dunyo qarashiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shularning barini hisobga olgan holda farzandlarga internet tarmoqlardan to'g'ri foydalana olishni o'rgatishimiz lozim. Ota-onalar ham bu jarayonda o'z farzandlari uchun asosiy na'muna bo'lib qolaveradilar. Bundan tashqari, oiladagi tinch-totuvlik muhiti ham bolaning tarbiyasida katta rol o'ynaydi.Oiladagi milliy qadriyatlar asosida tarbiya topgan bola o'zaro hurmatni ko'rib katta bo'lsa, atrofdagi insonlarga ham hurmat ko'zi bilan qaraydi.Katta va kichiklarni xurmat qilishni o'rganadi.Buni biz ustozlar o'quvchilarni o'qitish va bilim berish jarayonida bilib olamiz.

O'quvchilarimizga bilim va tarbiya berar ekanmiz, ularni har bir ishda mas'uliyatlari bo'lib yondashishida yo'l ko'rsatishimiz lozim. Milliy qadriyatlar asosida bilim berib, ta'lif- tarbiyani ongiga singdirib boramiz.O'quvchilar bilan

tarbiya darslarida turli mavzularda, yoritalayotgan mavzuning ijobjiy va salbiy tomonlari haqida suhbatlashiladi.

### **Ta’lim tizimida psixologik metodlarning ijobjiy natijalari**

Bir necha yillik faoliyatim davomida o’quvchilar bilan psixologik metodlardan foydalanim kelaman. “Ongli bola qanday bo’ladi?” mavzusida keng qamrovli suhbat va mashg’ulot o’tkazganimda, mashg’ulot natijalari juda ham samarali va ijobjiy yakunlangan. O’quvchilar insonlarga qanday yordam berish kerakligi, atrofdagilar bilan qanday munosabatda bo’lish lozimligi, ezgu ishlar nimaligi to’g’risida o’z fikrini keng bayon etganlarini ko’rib, hayratga tushasiz.

Yana bir o’quvchim o’qish va yozishda sinfdagi boshqa bolalardan o’zlashtirishda juda qiynalar edi. Unga yordam berish uchun ko’p izlandim. Kuzatuvalrim natijasida ertalab boshlagan mashg’ulotlarini kechki tomon yakunlashda qiyinchilikka duch kelishini aniqladim.

Bir kuni oldimga chaqirib ko’zini kichik ro’molcha bilan siqib bog’lab qo’ydim. Keyin sinfning u boshidan, bu boshiga yurgazdim. Bola yurish jarayonida doskaga, partalarga urildi va qiynalib meni qidirib yonimga topib keldi. Men ko’zini yechar ekanman o’sha zaxoti bola yig’lab yubordi. Men unga, nimani his qilding, deb so’radim. U ko’zim hech narsani ko’rmadi, zulmat ichida qolib, qo’rqib ketdim dedi va meni qattiq quchoqlab oldi. Shu payt o’quvchimga, seni ko’zing bu go’zal olamni ko’rib turibdi, senga o’xshagan ko’zi ojiz, nogiron bolalar bor. Ular bu yorug’ olamni ko’rishga muxtoj. Yozay, chizay desa qo’llari nogiron. Shunday bo’lsa ham ular oldinga intilib, rasm chizishga, dars qilishga, kitoblarni g’ijjalab bo’lsa ham o’qishga harakat qiladilar. Senchi – sen, ko’zing bu yorug’ va go’zal olamni ko’rib turibdi, oyoq va qo’llaring butun bo’lib turib, darslarni o’zlashtirmaysan, dangasalik qilasan. Bilim olishga befarq munosabatda bo’lasan, deb aytdim. Shu kundan boshlab shu o’quvchimda katta o’zgarishlar bo’ldi. Sinfdagagi eng a’lochi o’quvchilarim qatoriga qo’shildi.

Bu kichik bir psixologik yondashuv o’quvchimni butunlay yaxshi tomonga o’zgartirdi. O’zida mas’uliyatni xis qilgan xolda, darslarni vaqtida va tez bajaradigan bo’ldi. O’z oldiga ulkan maqsadlar qo’ydi. Birgina kichik bir “Ko’z bog’lami” bolani mas’uliyatlari bo’lishida, darslarga bo’lgan qiziqishida, oldinga intilishida, hamma faol o’quvchilar kabi yaxshi bilim olish darajasiga chiqishida katta yordam berdi.

“Dars muqaddas” dir! Biz ustozlar har bir darsga ajratilgan vaqtini muqaddas bilib, mavzuga oid bilimlarni o’quvchilarimiz ongiga singdirar ekanmiz, milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalashimiz lozim. O’quvchilarimizga kattalarni hurmat qilishini , halollikni, adolat kabi asriy qadriyatlarni singdirishimiz lozim.Bu jarayonda biz ustozlar va ota-onalar ularga har tomonlama na’muna va o’rnak bo’lishimiz darkor.

Shu o’rinda buyuk donishmandlarning so’zlariga nazar solsak:

*Muvaffaqiyatli tarbiyaning siri - o’quvchiga hurmatda.*

**R.Emerson**

*O’z burchini vijdonan ado etuvchilargina erkin yashaydilar.*

**Setseron**

*Go’zallik tuyg’usini singdirmay turib, to’laqonli barkamol insonni voyaga yetkazish mumkin emas.*

**P.Tagor**

*Bola bamisoli momiq bir narsaga o’xshaydi. Biz kattalar nima qilsak, shuni o’ziga tortib oladi.*

**G.M. Qo’chqorova**

Vatan oldidagi burch, fidokorlik, halollik kabi go’zal xislatlar, noyob fazilatlardir.Ular faqat yoshlikdan boshlab inson tabiatiga singdiriladi. Ota-onasi va o’qituvchining asosiy vazifalaridan biri yosh avlodga vatanparvarlik tuyg’usini shakillantirishdir. Vatanga, ota- onaga, Ona tabiatga, kattalarga hurmat, fidokor, halollik ruhida tarbiyalangan boladan kelajakda “Komil inson” bo’lib yetishadi degan umiddaman.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. Raximova Nigora Abduzaxidovna - Xalqaro islom akademiyasi qoshida tashkil etilgan "Ziyo- Zukko umumta'lim maktabi" boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi (muallifning o`zi)

# Research Science and Innovation House